

**Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan qonunchilik hujjatlari ijrosini ta’minlash
bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
MA’LUMOT**

Suv xo‘jaligi sohasida ijro intizomiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash yuzasidan mustahkam tizim yaratish, tartib o‘rnatish, temir intizomni joyiga qo‘yish, rahbarlar va xodimlarning dunyoqarashini o‘zgartirish – soha xodimlarining eng muhim hamda asosiy faoliyat mezonlaridir.

Davlat rahbari va Vazirlar Mahkamasining hujjatlari bilan “Ijro.gov.uz” tizimi orqali vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz “*texnologik zanjir*” asosida amalga oshirilib, ijro intizomiga rioya etish borasida qat’iy tartib, intizom va tizimli nazorat o‘rnatilib, muayyan natijadorlikka erishildi.

Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 118 ta hujjati orqali 1 293 ta topshiriq nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 58 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan va 15 ta topshiriqning muddatini uzaytirish yuzasidan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining tegishli Rayosat bayonlari bilan ijro muddatlarini uzaytirish ma’qullangan.

Administratsiya rahbarining 24 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 308 ta topshirig‘i nazoratga olingan va ijrosi ta’minlangan. Shundan, 45 tasi belgilangan muddatidan kechiktirib bajarilgan.

Joriy yilning sentyabr oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan 106 ta Prezident topshiriqlari, 13 ta Administratsiya rahbari topshiriqlari hamda 55 ta Vazirlar Mahkamasi topshiriqlarining barchasisi (100 foiz) to‘liq bajarilgan va o‘rnatilgan tartibda nazoratdan chiqarilgan.

Shuningdek, 2025-yil yakuniga qadar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 823 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 550 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 273 tasida ham ijrochi.

Administratsiya rahbarining 63 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 28 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 35 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 186 ta topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, shundan, 125 tasida vazirlik asosiy ijrochi va 61 tasida ham ijrochi hisoblanadi.

Topshiriqlar ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar har hafta vazirlik markaziy apparati yig‘ilishlari hamda har oy yakuni bilan hay’at yig‘ilishida tanqidiy tahlil qilib borilmoqda.

Tashkiliy nazorat va tahlil bo‘limi